

**ALISHER NAVOIY VA UNING ADABIY MEROSI**

**Maxmudova Xusniyabonu Jaloliddin qizi**

*Toshkent shahar, Sebzor, Xalqaro Nordik universiteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Alisher Navoiy hayoti va uning adabiy merosini o'rganishga bag'ishlangan. Asar o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi bo'lgan Navoiy ijodini, uning she'riyati va nasr asarlarini tahlil qiladi. Maqolada Navoiy asarlarining mavzulari, shakli, uslubi va uning adabiy merosga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Xususan, Navoiy tomonidan yaratgan "Xamsa" asari, uning sufi fikrlarini ifodalashdagi yuksak mahorati va adabiy ta'siri alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, Navoiy o'zining asarlarida insoniyatning ma'naviy yuksalishi, axloqiy qadriyatlar va tafakkur o'zgartirishda muhim rol o'ynaganligi, uning adabiy va falsafiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotgani haqida fikrlar yuritiladi. Maqola, Navoiy ijodining nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham adabiyot, madaniyat va falsafa rivojiga ta'sirini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Hayoti, ijodi, Xamsa, Mahbub ul-qulub, Adabiy meros, Islom Karimov, hikmatli so'zlar.

*Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.*

**Islom Karimov**

Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida tavallud topgan. To'liq ismi NIZOMIDDIN MIR ALISHER NAVOIY. ("Nizomiddin" — din-diyonat nizomi degani bo'lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, „mir“ amir demakdir). U nafaqat adabiyotshunos, balki davlat arbobi va siyosatshunos ham bo'lgan. Navoiy o'z davrida faqat o'zbek xalqiga emas, balki butun Sharq adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxsdir. Uning hayoti va ijodi hozirgi



kunda ham xalqlarni birlashtiruvchi, ruhiyati va ma'naviyatini yuksaltiruvchi kuchga ega. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo'lgan, ismi ma'lum emas. Uning otasi temuriylar xonadoniga yaqin odamlardan edi. Ularnikiga zamonasining mashhur kishilari tez-tez kelib turishardi. Yosh Alisher 3-4 yoshlarida she'r yod olib, ko'plarni hayratga soldi. 5 yoshida maktabga bordi. Bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi. Bo'lajak shoir 7-8 yoshlaridan she'r mashq qila boshladi. Ikki tilda she'r yozdi, o'zbekchalariga «Navoiy», forschalariga «Foniy» taxallusini qo'ydi. «Navoiy» «navo» — «kuy» so'zidan olingan, «Foniy» esa forsha «vaqtincha» ma'nolarini berar edi. Alisherning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro taxtga chiqishi bilan uni Samarqanddan Hirotga chaqirib oladi va muhrdor qilib tayinlaydi. 1472-yildan vazirlik martabasiga ko'tariladi, 1487-88-yillarda Astrobodda hokim bo'lib ishlaydi. 90 yoshli Mavlono Lutfiy uning

Orazin yopqoch, kozumdin sochilur har lahza yosh

Boylakim paydo bolur yulduz, nihon bolg'och quyosh

satrlari bilan boshlanadigan she'rini tinglab qoyil qoladi va aytadi „Valloh, agar muyassar bo'lsa edi, o'zumning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming baytimni shu g'azalga almashtirardim va buni o'zimning katta yutug'im deb hisoblar edim“, deydi.

Ma'nosi:

(Yor yuzini yopgach, kozimdan har lahza yosh sochiladi. Bu go'yo quyosh botganda yulduzlar paydo bolgani kabidir)

1447- yilda mamlakat podshohi Shohrux Mirzo vafot etib, yurtida notinchlik sababli u oilasi bilan Iroqqa kochadi. 6 yoshli Alisher Yo'lda, Taft shahrida Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, „Zafarnoma“ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. 1480–1500-yillar mobaynida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ta hovuz qurdiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga „muqarrabi hazrati sultoni“ („sulton hazratlarining eng yaqin kishisi“) degan unvonni beradi. Unga ko'ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi. 1501-yilning 3- yanvarida vafot etadi. Alisher Navoiyning qabri Hirotida. Hirot esa



Afg'onistonda joylashgan. Bobur xalqaro jamoat fondi 2015-yilda Afg'onistonning Hirot shahridagi tarixiy Musallo maydonida joylashgan Alisher Navoiy maqbarasida obodonlashtirish ishlarini olib bordi.

Uning ustozlari Nizomiy Ganjaviy, Shayx Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Fariddin Attor bolgan. Xamsa asari 1483-1485 –yillarda yozilgan. U 51 000 misradan ortiq. “Xamsa” soʻzi “Beshlik” maʼnosini beradi. Tarkibidagi 5 ta doston quyidagicha nomlanadi: «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sabʼai sayyor», «Saddi Iskandariy». “Hayrat ul-abror” – Yaxshi kishilarning hayratlanishi degan maʼnoni bildiradi. Bu didaktik-pandnoma dostonida 20 ta maqolat boʻlib, har bir maqolatdan soʻng maqolatdagi fikrni mustahkamlash uchun ibratli hikoyat keltiriladi. Masalan, birinchi maqolat iymon haqida, ikkinchisi islom haqida, uchinchi maqolat sultonlar haqida. Ayni shu maqolatdan soʻng Tilla kampir hikoyasi keltiriladi. “Hayrat ul-abror”ning Rost soʻz taʼrifida maqolatidan soʻng “Sher bilan Durroj” hikoyati keltirilgan. Unda aytilishicha, Ona sher farzandini chumolilardan himoyalash maqsadida ogʻzida tutib yurgan, Durrojning pir-pir uchishi tufayli u beixtiyor qoʻrquvdan tishini farzandiga qattiq botirib, uni jarohatlar edi. Bu sher uchun gʻam uzra gʻam, motam uzra motam edi. Axiyri ona sher Durroj bilan doʻst tutinishga qaror qildi. Bu ikki jonivor qiyin vaziyatlarda bir-biriga yordam berishga kelishib olishdi. Ammo Durrojda yolgʻonchilik odati bor edi: U har zamonda Ona sherni “Meni tutib oldilar, tuzoqqa tushdim”, deb aldar, Ona sher yugurib kelsa, Durroj hech bir xavotirsiz uchib yurgan boʻlardi. Ona sher doʻstini koʻp ogohlantirar, yolgʻonchilik yaxshi odat emasligini uqtirishga urinardi. Ittifoqo, bir kuni Durroj: “Dod! Meni tutdilar!” Deb qichqirdi. Ona sher esa doʻstim yana meni aldayapti deb oʻyladi va yordamga shoshilmadi. Lekin bu safar Durroj rostdan tuzoqqa tushgandi. Maktab oʻquvchilari Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoniga kirgan “Hotami Toyi hikoyati” ni yaxshi bilishadi. Hotam – adabiyotimizdagi saxiylik timsoli. Ammo u oʻtinchi cholni oʻzidan ham ustun qoʻyadi. Oʻz mehnati bilan yashash, birovning minnatiziz umr kechirish – komillik nishonasi. Chol shunchaki oddiy mehnatkash emas. Muruvvat barcha bermakdur, yemak yoʻq, Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yoʻq. Yaʼni hammaga berib, oʻzi yemaslik bu





muruvvatdir, ishni qilib hech kimga oshkor qilmaslik esa futuvvatdir. “Sab’ ai sayyor” (“Yeti sayyora”) - Alisher Navoiyning to’rtinchi dostoni (1484), ishqiy-sarguzasht xarakterda. Unda ham qiziqarli hikoyatlar jamlangan. Muqbil va Mudbir hikoyati bolalarni to’g’rilikka, halollikka, har yaxshiishning mukofoti ezgulik ekanligiga o’rgatadi. Dostonda xalq hayoti, tinchlik va osoyishtalik, adolat va vatanparvarlik, sevgi va ma’rifat g’oyalari ilgari suriladi, munofiqlik va zolimlik qoralanadi. “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) — “Xamsa” (Navoiy)ning yakunlovchi dostoni (1485). Asar 89 bob, 7215 baytdan iborat bo’lib, Navoiy ijodidagi hajman eng yirik epik asardir. Navoiy talkinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartibqoidalarni katta olamdagi tartibqoidalarga muvofiqlashtirish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Iskandar va darvesh hikoyati barcha yoshlardagi insonlar uchun birday ibratlidir. “Farhod va Shirin”da qahramonlar sevgi sarguzashtlari orqali insonning tarix va kelajak oldidagi vazifasini belgilaydi. „Layli va Majnun“ dostonida arab ertaklari orqali ma’lum syujet o’zining tugal shaklini topdi, unda ishq falsafasi betakror uslubda ifoda qilinadi. “Lison ut-tayr” asarida borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini, inson, tabiat va hayot haqidagi fikrlarini qushlar tili va sarguzashtlari orqali bayon qilgan. “Tarixi anbiyo va hukamo” („Payg’ambarlar va hakimlar tarixi“, 1485–1498) asarining birinchi bo’limida „Qissasul-anbiyo“lar an’analarini davom ettirib, Odam alayhis-salomdan Nuh, Iso, Muso, Ya’qub, Sulaymon, Yusuf, Dovud kabi payg’ambarlar tarixiga oid qissalar keltiradi. “Tarixi muluki Ajam” („Ajam shohlari tarixi“, 1488) qisqa tarix bo’lib, Eron shohlari xronikasi bayon qilingan „Tarixi Tabariy“, „Shohnoma“ asarlarini mantiqan to’ldiradi, ulardagi faktlarni izchil ilmiy tizimga soladi. Afsonaviy shoh Kayumarsdan sosoniylarning so’nggi vakili Yazdi Shahriyorgacha bo’lgan shohlar tarixini, mifologik talqinini beradi. 1500-yilda shoir umrning oxirida “Mahbub ul-qulub” “Qalblarning sevgani” asarini yaratdi. Bu nom bilan mazkur kitobda insonga xos eng ezgu fazilatlar, uni ma’naviy barkamol etadigan o’zgalar qarshisida go’zal, oliyjanob ko’rsatadigan xislatlar jamlanganini anglatmoqchi bo’ldi. “Mahbub ul-qulub” asari adibning oltmish yillik umri



davomida hayotda ko'rgan kuzatganlarini teran tahlil etib, kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merosidir. Asar hikmatli so'zlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi. 1-qism 40 fasl (bob) ni o'z ichiga oladi. Bunda muallif o'z davrining tipik vakillari hayotini tasvirlagan. Jamiyatdagi turli tabaqa vakillari haqida mulohazalar xalqqa keltiradigan foyda yoki zarariga ko'ra ulug'lanadi yoki tanqid qilinadi. 10 bobdan tashkil topgan 2-qismda yaxshi va yomon, maqtovg'a sazovor va nafratga loyiq xislatlar tafsiloti berilgan. Tasavvufiy tushunchalar haqida mulohaza yuritilib, fikrini asoslash maqsadida hikoyat keltiradi Hikoyatlarda shayx, avliyolar obraz darajasiga olib chiqiladi. 3-qismga masal va hikmatlar kiritilgan. Har bir jumla o'zaro qofiyadosh. Asarning sajda yozilishi unga alohida badiiy nafosat bag'ishlagan. Asarga baytlar, ruboiylar kiritilib, ular ulug' shoir va mutafakkirning hayot haqidagi xulosalarini mujassamlashtirgan. Axloqiy-falsafiy mavzulardagi tanbeh-nasihatlar o'rin olgan nasihatlar shakliy va mazmun jihatidan xilma-xildir. Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bolgan hayotiy savollarga eng to'g'ri javoblarni ta'sirli usulda berishi bilan yuksak qimmat kasb etadi. Navoiy "Mahbub ul-qulub" da yozadi:

"Adab kichik yoshlig'larni ulug'lar duosig'a sazovor etar va ul duo barokati bila umridin barxurdor. Kichiklar mehrin ulug'lar konglig'a solur va ul muhabbat kongulda muabbad qolur. Ushog'larini ko'zg'a ulug' qilur atvoridin xalq ulug'liq bilur." Ya'ni

Odob-kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi. Yoshlar duoning barakasidan umrbod bahramand boladilar. odob-ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan muhabbat kongilda abadiy qoladi. Yoshlarni kozga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvor—odobdir. Odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik koradi. Hilm to'g'risidagi bobida esa Hilm - axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U - yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi. Yumshoq ko'ngillilik - hodisalar to'la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi,-deyiladi.



Asarning uchinchi bobida insonlarda uchraydigan bir qancha qusrlarni qattiq tanqid ostiga oladi:

Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz.

Nodonning vaxshiylarcha baqirmog'i - eshakning bemahal hangramog'i.

Ko'p, bemaza so'zlaydigan ezma -kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshaydi.

O'zi xunuk, gapi bema'ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o'xshaydi.

Har kimningki so'zi - yolg'on, yolg'onligi bilingach, uyatga qolgon; yolg'onni chindek gapiruvchi so'z ustamoni - kumushga oltin qoplab sotuvchi zargar.

Yolg'on gapiruvchi g'aflatdadir; so'zning bir-biridan farqi ko'pdir, ammo yolg'onroq turi yo'qdir.

Asarning ikkinchi bobida saxovatni quyidagicha tariflaydilar: Hosildor daraxt, Foydali meva, Mavj urib turgan dengiz, Bebaho gavharga qiyoslaydi, saxovatsizlikni esa Yog'insiz bahor buluti, Hidi yo'q mushk-anbar, o'tin, Tutun, Mevasiz daraxt, Dursiz sadafga qiyoslaydilar. Yaxshi odamdan yomonlar ham yomonlik kutmas; yaxshi odam yomonlardan ham yaxshilikni ayamas. Yaxshilik qila olmasang - yomonlik ham qilma. Yaxshilikni yomonlikdan yaxshiroq deb bilmasang, yomonroq deb ham bilma. Yaxshilik qilishni bilmasang, yaxshilarga qo'shil; yaxshilik atrofida aylana olmasang, yaxshilar atrofida aylan. Hilm - axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi. Yumshoq ko'ngillilik - hodisalar to'la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ilgari surilgan odob-axloq g'oyalari to'g'risida fikr borar ekan, kishilarning ezgu sifatleri - saxiylik, mehribonlik, hilm, rostgo'ylik, mehnatkashlik, kamtarlik, tavoze' singari qator fazilatlar ulug'lanadi. Takabburlik, dangasalik, fisqu fasod, yolg'onchilik, firibgarlik, johillik, ochko'zlikni hazrat Navoiy insoniylikka zid illatlar deb biladi. Mahbub ul-qulub Alisher Navoiy asarlari tilini o'rganishda muhim manba





hisoblanadi. Uning turli vaqtda ko'chirilgan bir qancha qo'lyozmalari Toshkent, Sankt-Peterburg, Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanadi. Alisher Navoiy hayoti davomida adabiyot, falsafa, ilm-fan va siyosatda muhim o'rin tutgan. Uning asarlari faqat o'z davriga emas, balki keyingi asrlarga ham katta ta'sir o'tkazdi. Uning ilmga, ma'rifatga, axloq va adolatga bo'lgan sadoqati, uning asarlarida mujassam bo'lib, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Navoiy o'zining betakror asarlari orqali dunyo adabiyotida o'zining mustahkam o'rnini egalladi. Alisher Navoiy 1501-yilda vafot etdi, ammo uning adabiy merosi va ma'naviy g'oyalari bugungi kunda ham tirik. U nafaqat o'zbek xalqining, balki butun dunyo xalqlarining buyuk shoiridir. Uning hayoti va ijodi, o'zining haqiqiy insoniy qadriyatlarini ifodalagan asarlari bilan, insoniyat uchun doimo yorituvchi yo'l bo'lib qoladi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi bizga insonning ma'naviy rivojlanishi, axloqiy poklanish va ilmga bo'lgan sadoqat haqida ko'plab darslar beradi. U o'z asarlari orqali odamlarni yaxshilikka, ilmga, haqiqatni izlashga undagan va shuning uchun uning merosi butun insoniyat uchun yorituvchi nur bo'lib qolmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- **Navoiy, A.** – *Xamsa* (to'plam, tarjima va sharhlar). – Toshkent: "Yangi avlod", 2003.
- **Said, S.** – *Alisher Navoiy va uning adabiy merosi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.
- **Mirzaev, A.** – *Alisher Navoiy: Yangi tadqiqotlar va tahlillar*. – Toshkent: Sharq, 2007.
- **Karimov, I.** – *Alisher Navoiy va ma'naviyat*. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
- **Xo'jaev, N.** – *Navoiy adabiyoti va uning falsafasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
- **Abdullayev, M.** – *Alisher Navoiy va o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
- **Kamilov, Sh.** – *Alisher Navoiy va uning she'riyati*. – Toshkent: Fann, 2005.
- **Mirzohidov, B.** – *Alisher Navoiy va uning "Xamsa" asari*. – Toshkent: Falsafa nashriyoti, 2005.
- **Mirzaev, A.** – *Alisher Navoiy: Biografiya va ijod*. – Toshkent: Sharq, 2010.



- **Akbarov, R.** – *Alisher Navoiy: Hayoti va ijtimoiy faoliyati.* – Toshkent: Yangi avlod, 2013.
- **Sobirov, X.** – *Alisher Navoiy va uning davri: Hayot va ijodiy faoliyatining asosiy bosqichlari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
- **Xolmuhamedov, N.** – *Alisher Navoiy va uning zamonasi.* – Toshkent: Fann, 2012.
- **Xudoyberdiyev, B.** – *Alisher Navoiy: Hayoti va ijodi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.